

T A R I X

DTM tomonidan taqdim etilgan Axborotnoma – 2019 (1/4)

Testlar tahlili bilan birga

1. Toshkent vohasida joylashgan toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari topilgan manzilgohni aniqlang.

(6-sinf. 2-Mavzu. 0)

- A) Selung'ur (farg'ona)
- B) Zamonbobo (Buxoro)
- C) Ko'lbulog (Toshkent)
- D) Sopollitepa (Muzrabod. Surxondaryo)

Darajasi – 1 (Oson). O'quvchi bir ko'rganda eslay oladigan, asosan o'quvchining yodlagan ma'lumotini eslashni talab qiladigan daraja.

2. Quyidagi qaysi daryo qadimda Politimet deb atalgan?

(6-sinf 32-Mavzu)

- A) Chirchiq (Parak, o'rta asrlarda)
- B) Sirdaryo (Yaksart)
- C) Zarafshon
- D) Amudaryo (Oks)

Darajasi – 1 (Oson). Ushbu test ham yuqoridagi kabi. Asosan ma'lumotni yodlay olish qobiliyati, joy nomlarini qay darajada o'zlashtirganini aniqlash uchun berilgan test sinovi

3. Darajasi – 1 (Oson)

Surxondaryo vohasidan topilgan qadimgi shaharni aniqlang?

(6-sinf. 19-Mavzu:)

- A) Yerqo'rg'on (Qashqadaryo)

B) Uzunqir (Qashqadaryo)

C) Qiziltepa

D) Afrosiyob (Samarqand)

4. Darajasi – 1 (Oson). Bunday testlarni o'quvchilar mazza qilib ishlshsa kerak! :)


Kromanyon odami qaysi davr mansub?

- (6-sinf 3-Mavzu)
- A) Mezolit
- B) Ilk paleolit (Sinantrop, Petekantrop, Avstrolopitek, Zinjantrop)
- C) so'nggi paleolit**
- D) o'rta paleolit (Neandertal)

5. Darajasi – 1 (oson)

Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha,saklar necha guruhga bo'lingan?

(6-sinf 19-mavzu)



A) 5 guruhga

B) 2 guruhga

C) 4 guruhga

D) 3 guruhga

6. Kushon davlatiga oid quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor davriga tegishli ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.?

(6-sinf 35-Mavzu)

1) Kudzula Kadfiz; 2) Kanishka; 3) Vima Kadfiz;

a)mamlakatda hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi;

b)davlat poytaxt Baqtriyadan Peshovarga ko'chirildi;

c) Afg'oniston va Kashmir hududlari qo'shib olindi.

- A) 1-b; 2-a; 3-c **B) 1-c; 2-b; 3-a**
C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-a; 2-b; 3-c

Darajasi – 2 (o'rtacha). Bunday darajada o'quvchidan bir nechta ma'lumotlarni solishtirib keyin to'g'ri javobni aniqlash talab etiladi.

Ushbu testda ham shunday holat kuzatilmoque da. Ya'ni Kushon hukmdorlari o'tkazgan islohotlar haqida savollar to'plami keltirilgan.

Nima uchun o'rtacha darajada?

Sababi bu solishtirish bir mavzu doirasidagina bo'lmoqda, agar ushbu holat bir nechta mavzular doirasida bo'lganda qiyin (3) darajada bo'lishi ham mumkin edi?

(6-sinf bo'yicha tayyorlagan "Tarixning o'r ganishning 22 formulasi nomli kitobimizda bunday testlarga osonroq javob topish bo'yicha yaxshigina bir qo'llanma tayyorlagan edik. O'qib chiqishni tavsiya qilaman)

7. Insonlar tomonidan munchoqlar, tumorlar va uzuklar yasala boshlangan (a) va hayvonlar qo'lga o'rgatilgan (b) davrlarni aniqlang?

- 1) ilk paleolit; 2) o'rta paleolit 3) so'ngi paleolit
4) mezolit 5) neolit

- A) a-2, b-4 **b)a-3, b-4**
c) a-1, b-4 d) a-3, b-5

Darajasi – 2 (o'rtacha. Ushbu testda yuqoridagi holat kuzatilmoque da. Ya'ni bir nechta ma'lumotni taqqoslab, uning qaysi davrga oidligini topish kerak.

8. Quyidagi manzilgohlardan qaysi biri Surxondaryo vohasida joylashgan emas?

(6-sinf 2, 4-Mavzular)

- A) Jarqo'ton (Sherbod, Surxon)
B) Sopolitepa (Muzrabod, Surxon)
C) Teshiktosh (Boysun, Surxon)
D) Ko'lbulloq (Toshkent)

Darajasi – 2(O'rtacha). Bu test yuqoridagi testlardan biroz farq qiladi. Ya'ni bu yerda bir mavzudan emas, bir nechta mavzudan ma'lumotlar taqqoslanmoqda. Ya'ni Surxondayo vohasida joylashgan manzilgohlar keltirilmoqda va variantlarni biriga Surxonda joylshmagan bir manzilni toppish so'rалмоқда.

9. Obishir, Qo'shilish, Machay manzilgohlari qaysi davrga oid?

(6-sinf 3-Mavzu)

- A) paleolit davriga
- B) neolit davriga
- C) eneolit davriga
- D) mezolit davriga**

Darajasi -1 (Oson). Yana o'sha manzilgohlar haqidagi savol. Tosh davlariga oid bir nechta manzilgohlar va ularning joylashgan joylari mavjud bo'lib ularni yodlashda o'quvchidan biroz qunt talab qilinadi. Va bu narsa yuqoridagi tesda ham o'z aksini topgan

10. Zarautsov darasidagi qoyatosh rasmlar qaysi davrga oid?

(6-sinf 3-mavzu)

- A)mezolit**
- B) ilk paleolit
- C) o'rta paleolit
- D) so'ngi paleolit

Mezolit davriga oid O'rta osiyodagi 4 manzilgoh bat afsil o'r ganilgan bular:

Obishir, Qo'shilish, Machay manzilgohlari va Zarautsov qoyatosh rasmlari

Ushbu ma'lumot yuqoridagi 2 ta testda kelmoqda

11. To'g'ri ma'lumotni toping?

A) *Kushon davlati mil.av. II asr oxirida qudratli davlat birlashmasiga aylangan.*

(Mil.avv II asr Qang' davlati qudratli davlatga aylandi, O'zi aslida mil. Avv II asrda Kushon podsholigi mavjud bo'lмаган еканligini hisobga olsak bu ma'lumotga tarixan to'g'ri emas)

B) *Kushon davlati milodiy I asrda vujudga kelgan.*

C) *Kushon davlatida shaharsozlikning boshlanishi mil.av. VII asrga*

borib taqaladi. (Bu ma'lumot Xorazmga to'g'ri keladi)

D) Kushon davlatining poytaxti Ershi hisoblanadi. (Ershi – davan davlati poytaxti hisoblanadi)

Darajasi -3 (Qiyin). Ushbu testda bir nechta ma'lumotlarni o'qib ulardan to'g'ri ma'lumotni topish kerak bo'ladi. Bu esa o'quvchidan ma'lumotlarni qanchalik qunt va e'tibor bilan o'qiganligini sinovdan o'tkazadi

12. To'g'ri ma'lumotni toping?

A) O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimgi mehnat qurollari topilgan Ko'lbulloq manzilgohi Farg'ona vodiyida joylashgan.

(Ko'lbulloq Toshkent vohasida joylashgan, shuning uchun bu ma'lt to'g'ri emas)

B) **Qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan Sopollitepa Surxon vohasida topilgan**

C) Ilk shahar alomatlari ko'zga tashlangan Jarqo'ton manzilgohi Zarafshon daryosi havzasida vujudga kelgan.

(Jarqo'ton manzilgohi Surxon vohasida joylashgan)

D) O'rta osiyoda toshdan yasalgan qadimgi mehnat qurollari topilgan Selung'ur makoni Toshkent vohasida joylashgan

(Selubg'ur manzilgohi esa Farg'onada joylashgan, shuning uchun bu ma'lumotni ham xato ma'lumotlar qatoriga kiritamiz)

13. Quyidagi qaysi dinda inson vafot etganida marhumlarni jasadini yerga ko'mish ham, olovda kuydirish ham, suvgaga tashlab yuborish ham taqiqilanadi?

(6-sinf 20-mavzu)

A) hinduiylik

B) Zardushtiylik

C) xristianlik

D)buddizm

Darajasi -2 (O'rtacha). Usbu test ma'lum bir din haqidagi, uning ta'limoti haqida o'quvchi qanday o'zlashtirganin sinovdan o'tkazish ga mo'ljallangan. Bir nechta jumlalarga keltirilgan shuning uchun o'quvchida biroz chalkashlik bo'lishi mumkin

Zardushtiyalar, inson jasadini kuydirishmagan , suvgaga tashlab yuborishmagan. Sababi ular tuproq, suv, havoni muqaddas deb bilgan

Ular jasadni tog'larga qo'yib toki yirtqich hayvonlar yeb, faqat suyaklari qolmagauncha saqlashgan. Va qolgan suyaklarini ossuariylarda saqlashgan.

14. Boysun tog'laridan topilgan, o'rta paleolit davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblangan manzilgohni aniqlang.

6-sinf 2-mavzu:

- A) Seleng'ur (Farg'ona)
- B) Ko'lbuluoq (Ohangaron, Toshkent)
- C) Jarqo'ton (Sherobod (Surxon))
- D) Teshiktosh (Boysun , Surxon)**

Darajasi –1 (Oson) ushbu testda maznilgohlar bilan bo'g'liq sinov berilgan

15. "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni" ("Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimai holi") asari muallifi kim?

(7-sinf o'zbekiston tarixi)

- A) Ibn al- Asir
- B) Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy**
- C) MIRxond
- D) Alouddin Atomalik Juvayniy

Darajasi - 1 (oson)

Va nihoyat 6-sinfga oid testlar tugab 7-sinfga ham o'tildi. Ushbu test tarixiy shaxslar va ularning asarlari haqida bo'lib, bunday vaziyatda o'quvchidan asarlar va mualliflari haqida ma'lumotni bilish talab etiladi

Izoh: Shihobiddin Nasaviy Jaloliddining eng yaqin mulozimlaridan biri bo'lib, 1224-1231-yillarda uning xizmatida bo'lgan. Va 1241-yilda ushbu asarini yozishga kirishgan.

16. "Sening ortingda islomning dushmani turgani sir emas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Men bunday paytda senga qarshi bo'lishni istamayman . Taqdir qo'lida senga qarshi quroq bo'lishni xohlamayman. Men kabi odam seningdek insonga qarshi qilich ko'tarishi kechirilmas holdir" Shamsiddin Eltutmish tomonidan ushbu so'zlar kimga qarata aytilgan?

- A) Abu Muslimga
- B) Amir Temurga
- C) Jaloliddin Manguberdiga**
- D) Boyazidga

Darajasi -1 (Oson). Jaloliddin haqida testlar davomiyligi.

Izoh: Jaloliddin Hindistonga borganda u yerda Shamsiddin Eltutmiush hukmronlik qilar edi (1211-1236-yillar). Shamsiddin Jaloliddin haqida ushbu fikrlarni birdirgan edi

17. 1225-yili Jaloliddin Manguberdiga jangsiz taslim bo'lgan shaharni belgilang

A) Marog'a

B) Damashq

C) Mug'on

D) Tabriz

Darajasi – 1 (eson)

"Jangsiz egallangan shaharlar" deb nomlangan qo'llanmamzini yodlab olsangiz bu boshqa shunga oxshash testlarga javob berishn

18. Jaliddin Mangubersi Gurjistonni qachon to'liq egallagan?

A) 1226-yilda B) 1225-yilda C) 1224-yilda D) 1227-yilda

19. Quyidagi asarlarning tavsifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang

1) O'rta Osiyo xalqlari tarixi, turmushi, madaniyati, urf-odatlari adabiyotini o'rganishda eng noyob manba

2) Islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadida yozilgan asar;

3) Oddiy xalq, mehnatkash insonlarni elohida ehtirom bilan tasvirlangan asar:

a) "Qutadg'u bilig"

b) "Devonu lug'atit turk"

c) "Hibbat ul-haqoyiq"

A) 1-b, 2-c, 3-a

B) 1-a, 2-b, 3-c

C) 1-c, 2-b, 3-a

D) 1-b, 2-a, 3-c

20. Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti hisoblangan asar nomini aniqlang

A) "Temur haqida xotiralar"

B) "Buyuk Temur"

C) "Esdaliklar"

D) "Skifialik Tamerlanning ulug'vorligi"

21. VII asrda Arab xalifaligining Maymurg' va Chag'oniyonga hujumlari qaysi xalifalar davrida amalga oshirilgan?

A) Usmon va Ali davrida

654-yili

B) Usmon va Muoviya I

667-yili

C) Ali va Mansur

22. Saljuqiylar sultonı Sanjarga qarshi o'g'uzlar isyon ko'targan va Saljuqiylar davlatiga mo'g'ullar bosqini amalga oshirilgan yillarni belgilang

1243-yili

A)1038- va 1243-yillar

B)1153- va 1308-yillar

C)1153- va 1243-yillar

D)1038- va 1308-yillar

Darajasi – 2 (O'rtacha). Ushbu test ham o'ziga xos qilib tuzilgan. Ya'ni Saljuqiylarga oid 2 xil kitobdan ma'lumotlar taqqoslanmoqda: 7-sinf jahonya o'zbek tarixlari. Bunda o'quvchidan ikki kitobdag'i ma'lumotlarni taqqoslay olish va bir paytda qo'llay olish malakasi tekshiriladi

23.Qaysi davlatda xo'jayi buzruk unvoniga ega bo'lgan shaxs devonxona ishlariga ham mas'ul bo'lgan?

A)Qoraxoniylar davlatida

B)Xorazmshohlar davlatida

C)Qoraxitoylar davlatida

D)Somoniylar davlatida

Darajasi - 2

24. Quyidagilardan Turk xoqonligining markazlashgan davlatga aylasnishiga imkon bermagan omillarni aniqlang

1)katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqining markaziy hokimyatga intilishi

2)Xoqonlikning janubiy hududlari eftallari tomonidan egallab olinishi;

3)Hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo'lishga intilishi

4)Arab xalifaligi hujumi

A) 2,4 B) 1,4

C)2,3 **C)1,3**

Darajasi – 2 (o'rtacha)

25.Shayboniylar davrida yozilgan "Tarixi Rashidiy" asarining muallifini belgilang

A)Kamoliddin Binoiy

B)Muhammad Haydar

C) Hofiz Tanish Buxoriy

D) Fazlulloh ibn Ro'zbexon

Darajasi -1

26. Muhammad Shayboniyxon tomonidan Turkistonga kim hokim etib tayinlangan?

8-sinf 3-mavzu:

A) Suyunchxo ja Sulton (Toshkent)

B) Jonibek Sulton (Aksi va Andijon)

C) Ko'chkunchi Sulton

D) Mahmud Sulton (Buxoro)

(1510-yil)

27. Shayboniyxon o'limidan so'ng taxtga o'tirgan shaxsni aniqlang?

(8-sinf o'zbekiston tarixi 5-Mavzu)

A) Suyunchxo ja Sulton

B) Ko'chkunchi Sulton (1510-1530-yillar)

C) Ubaydullaxon (1533-1540-yillar)

D) Abu Said (1530-1533-yillar)

28. Ashtarkoniylar kimning naslidan bo'lган?

(8-sinf o'zbek 2-mavzu)

A) Tuluxon

B) O'qtoy

C) Chig'atoy

D) Jo'jixon

Darajasi – 1 (oson)

29. "Boburxona" da Shyboniyxon ismi Shoyboqxon deb berilgan. Bu nom qanday ma'noni anglatadi?

8-sinf O'zbekiston 2-mavzu:

A) g'ururlı

B) şer

C)toza

D)kuch-qudrat

Darajasi – 1

1755-1759-yillar

30. Sin imperiyasi Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga uringan yillarda Qo'qon xonligida km hukmronlik qilayotgan edi?

(8-sinf o'zbek 31, 38-mavzular)

A)No 'rbo 'tabiy (1763-1798-yillar

B)Olimxon (1798-1810-yillar

C)Erdonabiy (1751-1762-yillar)

D)Abdukarimbiy (1733-1750-yillar

Darajasi- 2 (o'rtacha)

Ushbu test ham taqqoqlash kerak bo'lgan , o'quvchidan bir nechta mavzuga doir bilimlar talab qilinadigan test.

Ya'ni 1755-1759-yillarda Xitoy Sharqiy Turkistonni bosib olishga harakat qilgan davrda Qo'qon xoni kim ekanligi so'ralomqda. Bu davrda Qo'qonda Erdona hukmdor ekanligini bilish uchun 31-mavzudagi bilimlaringiz mustahkamroq bo'lishi kerak bo'ladi

Testlar 6-7-sinflar va 8-sinf o'zbekiston tarixlaridan tuzilgan bo'li asosan oson va o'rtacha testlardan iborat ekan.

Balki kelasi sonlarda DTM qiyin darajadagi va yuqori sinflardan tuzilgan testlarni ham keltirib o'tar. Hozircha shular.

Tahrirlovchi:

Registon o'quv markazi o'qituvchisi: Ilyosxo'ja Bekmirzayev